

# INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY



VOLUME 6  
ISSUE 1 2026

# ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

6-JILD, 1-SON

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ  
ТОМ-6, НОМЕР-1

INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY  
VOLUME-6, ISSUE-1



# ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ | INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY

№1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-1419-2026-1>

**BOSH MUHARRIR: | ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР: | CHIEF EDITOR:**

**MIRZAYEV IBODULLA**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**МИРЗАЕВ ИБОДУЛЛА**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**MIRZAYEV IBODULLA**  
DSc, professor (Uzbekistan)

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI: | ЗАМЕСТИТЕЛЬ  
ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА: | DEPUTY CHIEF EDITOR:**

**JABBOROV NURBOY**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**ЖАББОРОВ НУРБОЙ**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**JABBOROV NURBOY**  
DSc, professor (Uzbekistan)

**TAHRIRIY HAY'ATI:**

**Muhiddinov Muslihiddin**

*f.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Dilorom Salohiy**

*f.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Sodiqov Qosimjon**

*f.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Binnatova Almaz Ulvi**

*f.f.d., professor (Ozarbayjon)*

**To'xliyev Boqijon**

*f.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Shodmonov Nafas**

*f.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Asadov Maqsud**

*f.f.d., dotsent (O'zbekiston)*

**Yo'ldoshev Qozoqboy**

*f.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Jo'raqulov Uzoq**

*f.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Funda Toprak**

*f.f.d., professor (Turkiya)*

**Nabiulina Guzal**

*f.f.d., professor (Tatariston)*

**Yusupova Dilnavoz**

*DSc, professor (O'zbekiston)*

**Sirojiddin Xo'jaqulov**

*f.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Rahim Ibrohim**

*f.f.d., professor (Afg'oniston)*

**Turobov Abdurahim**

*f.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Muhitdinova Badia**

*DSc, professor (O'zbekiston)*

**Muhammadiyev Ahadjon**

*DSc, dotsent (O'zbekiston)*

**Suvonova Jumagul**

*f.f.n., dotsent (O'zbekiston)*

**Mirzayev Rahmatilla**

*y.f.n., dotsent, huquqshunos (O'zbekiston)*

**Abdullayeva Albina**

*f.f.n., dotsent (O'zbekiston)*

**Nurova Gulchehra**

*f.f.n., dotsent (O'zbekiston)*

**Sultanov Tulkin**

*PhD, dotsent (O'zbekiston)*

**Ubaydullayev Normuhammad**

*PhD, dotsent (O'zbekiston)*

**Ruzmanova Roxila**

*dots., mas'ul kotib (O'zbekiston)*

**Narziyeva Ma'mura**

*PhD, kotib (O'zbekiston)*

**ILMIY MASLAHAT KENGASHI**

**Xalmuradov Rustam**

*t.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Sirojiddinov Shuhrat**

*f.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Eshqobil Shukur**

*O'zbekiston Respublikasida*

*xizmat ko'rsatgan madaniyat*

*xodimi, shoir (O'zbekiston)*

**Rixsiyeva Gulchehra**

*f.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Benedek Peri**

*f.f.d., professor (Vengriya)*

**Olimov Karomatillo**

*f.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Dadaboyev Hamidulla**

*f.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Shomusarov Shorustam**

*f.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Dyu Rye Andre**

*f.f.d., professor (Fransiya)*

**Hamroyev Juma**

*f.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Aftondil Erkinov**

*f.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Hasanov Shavkat**

*f.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Umurova Go'zal**

*f.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Xalliyeva Gulnoz**

*f.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Alim Labib**

*f.f.d., professor (Afg'oniston)*

## РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

**Мухиддинов Муслихиддин**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Дилором Салохий**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Содиков Косимжон**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Биннатова Алмаз Улви**  
д.ф.н., профессор (Азербайджан)  
**Тухлиев Бокижон**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Шодмонов Нафас**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Асадов Максуд**  
д.ф.н., доцент (Узбекистан)  
**Юлдашев Казакбай**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Журакулов Узок**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Фунда Топрак**  
д.ф.н., профессор (Турция)  
**Набиуллина Гузаль**  
д.ф.н., профессор (Татаристан)  
**Юсупова Дилнавоз**  
DSc, профессор (Узбекистан)  
**Сирожиддин Хужакулов**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Рахим Иброхим**  
д.ф.н., профессор (Афганистан)  
**Туробов Абдурахим**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Мухигдинова Бадиа**  
DSc, профессор (Узбекистан)  
**Мухаммадиев Ахаджон**  
DSc, доцент (Узбекистан)  
**Сувонова Жумагул**  
к.ф.н., доцент (Узбекистан)  
**Мирзаев Рахматилла**  
к.ю.н., доцент (Узбекистан)  
**Абдуллаева Альбина**  
к.ф.н., доцент (Узбекистан)  
**Нурова Гулчехра**  
к.ф.н., доцент (Узбекистан)  
**Султанов Тулкин**  
PhD, доцент (Узбекистан)  
**Убайдуллаев Нормухаммад**  
PhD, доцент (Узбекистан)  
**Рузманова Рохила**  
доц., отв. секретарь (Узбекистан)  
**Нарзиева Мамура**  
PhD, секретарь (Узбекистан)

## НАУЧНО-КОНСУЛЬТАТИВНЫЙ СОВЕТ:

**Халмурадов Рустам**  
д.т.н., профессор (Узбекистан)  
**Сирожиддинов Шухрат**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Эшқобил Шуккур**  
Заслуженный работник культуры Республики  
Узбекистан, поэт (Узбекистан)  
**Рихсиева Гулчехра**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Бенедек Пери**  
д.ф.н., профессор (Венгрия)  
**Олимов Кароматилло**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Дадабаев Хамидулла**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Шомусаров Шорустам**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Дю Рье Андре**  
д.ф.н., профессор (Франция)  
**Хамроев Джума**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Афтондил Эркинов**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Хасанов Шавкат**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Умурова Гузал**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Халлиева Гулноз**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Алим Лабиб**  
д.ф.н., профессор (Афганистан)

## EDITORIAL BOARD:

**Mukhiddinov Muslikhiddin**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Dilorom Salokhiy**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Sodikov Kosimjon**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Binnatova Almaz Ulvi**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)*

**Tukhliev Bokijon**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Shodmonov Nafas**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Asadov Makhsud**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Yuldoshev Kozokboy**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Jurakulov Uzok**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Funda Toprak**  
*DSc, prof. (Türkiye)*

**Nabiulina Guzal**  
*DSc., prof. (Tatarstan)*

**Yusupova Dilnavoz**  
*DSc, prof. (Uzbekistan)*

**Sirojiddin Khujakulov**  
*DSc, prof. (Uzbekistan)*

**Rakhim Ibrokhim**  
*DSc, prof. (Afghanistan)*

**Turobov Abdurakhim**  
*DSc, prof. (Uzbekistan)*

**Mukhitdinova Badia**  
*DSc, prof. (Uzbekistan)*

**Mukhammadiyev Akhadjon**  
*DSc, assoc. prof. (Uzbekistan)*

**Suvonova Jumagul**  
*PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)*

**Mirzayev Rahmatilla**  
*PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)*

**Abdullayeva Albina**  
*PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)*

**Nurova Gulchekhra**  
*PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)*

**Sultanov Tulkin**  
*PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)*

**Ubaydullayev Normuhammad**  
*PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)*

**Ruzmanova Rokhila**  
*Assoc. prof., Exec. Sec. (Uzbekistan)*

**Narziyeva Ma'mura**  
*PhD, Secretary (Uzbekistan)*

## SCIENTIFIC ADVISORY BOARD:

**Khalmuradov Rustam**  
*Doc. of technic. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Sirojiddinov Shukhrat**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Eshqobil Shukur**  
*Honored Worker of Culture of the Republic of Uzbekistan, poet (Uzbekistan)*

**Rikhsieva Gulchekhra**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Benedek Peri**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Hungary)*

**Olimov Karomatullo**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Dadaboev Khamidulla**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Shomusarov Shorustam**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Dyu Rye Andre**  
*Doc. of philol. scien., prof. (France)*

**Khamroev Juma**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Aftondil Erkinov**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Khasanov Shavkat**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Umurova Guzal**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Khallieva Gulnoz**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Alim Labib**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Afghanistan)*

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**NAVOIY VA ADABIY TA'SIR MASALALARI**

<b>1. Афтондил ЭРКИНОВ</b> АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИНИНГ ЭРОН ҚЎЛЁЗМАЛАРИ.....	7
<b>2. Sherxon QORAYEV</b> O'ZBEK XONLIKLARIDA NAVOIYXONLIK TENDENSIYALARI (XIVA XONI MUHAMMAD RAHIMXON FERUZNING "NAVOIYXONLIK" KECHALARI MISOLIDA)...	15
<b>3. Nigora TO'XTAQULOVA</b> ALISHER NAVOIY HIKOYALARINING FOLKLOR BILAN BOG'LANISHI ("MAJOLIS UN-NAFOIS" TAZKIRASI MISOLIDA).....	21
<b>4. Jumagul SUVONOVA</b> ALISHER NAVOIY VA ABDULLA ORIPOV IJODIDA TARBIYAVIY G'OYALAR UZVIYLIGI AN'ANA VA ZAMON TALQINIDA.....	30
<b>5. Zulfiya RASULOVA</b> UZBEKSKO-TADJIKSKIE LITERATURNYE SVYAZI XX VEKA.....	37
<b>6. Sitara QODIRQULOVA</b> ALISHER NAVOIY LIRIKASI TARJIMONI ALEKSANDR NAUMOV HAQIDA.....	43

**NAVOIY NASRI VA NAZMI NAFOSATI**

<b>1. Shavkat YANGIBOYEV</b> "ILK DEVON" SHE'RLARINING ALISHER NAVOIYNING BOSHQA DEVONLARIGA JORIYLANISHI.....	48
<b>2. Shaxnoza KAXXAROVA</b> ALISHER NAVOIYNING "HOLOTI SAYYID HASAN ARDASHER" MANOQIBIDA KOMIL INSON TALQINI.....	58
<b>3. Sherxon QORAYEV</b> ALISHER NAVOIY "OLIIY MAJLISLARI" VA NADIMLARI.....	70
<b>4. Umida OTAYAROVA</b> "XAMSA"LARNING SO'NGGI DOSTONLARIDA ILM-MA'RIFAT TALQINI.....	79
<b>5. Dilfuza RAXMATOVA</b> NAVOIY G'AZALLARIDA SOLETSIZMNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI.....	85
<b>6. Dilafro'z TAMIKAYEVA</b> ALISHER NAVOIY ASARLARI TILI VA UNI TADQIQ ETISH MASALALARI.....	92

**NAVOIY VA TILSHUNOSLIK MASALALARI**

<b>1. Umida UBAYDULLAYEVA</b> TILSHUNOSLIKDA LISONIY MANZARA KONSEPSIYASINING SHAKLLANISHI VA ILMIY TALQINLARI.....	99
<b>2. Rustamjon JABBOROV</b> BOBURIYLARNING TURKIY TIL VA ADABIYOT RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI.....	105

**TAQRIZ, TAHLIL VA TARJIMA**


<b>1. Iroda ISHONXANOVA</b> O'ZBEK ADABIYOTI YO'LBOSHCHISIGA BAG'ISHLANGAN NASHR.....	112
<b>2. Roxila RUZMANOVA</b> TURK DUNYOSINING YIRIK TADQIQOTCHISI.....	122



**Jumagul SUVONOVA,**  
 filologiya fanlari nomzodi, professor  
 Sharof Rashidov nomidagi  
 Samarqand davlat universiteti,  
 Samarqand, O‘zbekiston  
 E-mail: Jumagul-Suvonova@rambler.ru

### ALISHER NAVOIY VA ABDULLA ORIPOV IJODIDA TARBIYAVIY G‘OYALAR UZVIYLIGI AN‘ANA VA ZAMON TALQINIDA

**For citation:** Suvonova Jumagul. ALISHER NAVOI AND ABDULLA ORIPOV: THE CONTINUITY OF EDUCATIONAL IDEAS IN THEIR WORKS IN THE INTERPRETATION OF TRADITION AND MODERNITY. Alisher Navoi. 2026, vol. 6, issue 1.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19412105>

#### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek adabiyatining, mumtoz va zamonaviy she‘riyatining ikki yirik namoyandasi – Alisher Navoiy va Abdulla Oripov ijodi asosida mulohaza yuritiladi. Bu ikki shoir ijodidagi inson va jamiyat haqidagi qarashlari, komil inson konsepsiyasi, vijdon, vatan, muhabbat hamda so‘zning ijtimoiy-ma‘naviy ahamiyati masalalari ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Mumtoz va zamonaviy she‘riyat misolida adabiy an‘analarning tarixiy davomiyligi yoritilib, Abdulla Oripov ijodida Alisher Navoiy asos solgan g‘oyaviy-estetik mezonlarning zamonaviy shaklda namoyon bo‘lishi ifoda etiladi.

**Kalit so‘zlar:** Alisher Navoiy, Abdulla Oripov, adabiyotshunoslik, komil inson, vijdon, milliy ong, vatanparvarlik, she‘riyat.

**Жумагул СУВОНОВА,**  
 кандидат филологических наук, профессор  
 Самаркандский государственный университет  
 имени Шарофа Рашидова, Самарканд, Узбекистан  
 E-mail: Jumagul-Suvonova@rambler.ru

### АЛИШЕР НАВОИ И АБДУЛЛА ОРИПОВ: ПРЕЕМСТВЕННОСТЬ ВОСПИТАТЕЛЬНЫХ ИДЕЙ В ИХ ТВОРЧЕСТВЕ В ИНТЕРПРЕТАЦИИ ТРАДИЦИИ И СОВРЕМЕННОСТИ

#### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается творчество двух крупнейших представителей узбекской литературы, классической и современной поэзии – Алишера Навои и Абдуллы Орипова. С научной точки зрения анализируются взгляды этих двух поэтов на человека и общество, концепция совершенного человека (камил инсан), вопросы совести, родины, любви,

а также социально-духовная значимость слова. На примере классической и современной поэзии освещается историческая преемственность литературных традиций, раскрывается современное воплощение идейно-эстетических критериев, заложенных Алишером Навои, в творчестве Абдуллы Орипова.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, Абдулла Орипов, литературоведение, совершенный человек, совесть, национальное самосознание, патриотизм, поэзия.

**Jumagul SUVONOVA,**

Candidate of Philological Sciences, Professor  
Samarkand State University named after  
Sharof Rashidov, Samarkand, Uzbekistan  
E-mail: Jumagul-Suvonova@rambler.ru

## ALISHER NAVOI AND ABDULLA ORIPOV: THE CONTINUITY OF EDUCATIONAL IDEAS IN THEIR WORKS IN THE INTERPRETATION OF TRADITION AND MODERNITY

### ABSTRACT

This article examines the works of two prominent figures of Uzbek literature, representing classical and modern poetry – Alisher Navoi and Abdulla Oripov. From a scientific perspective, the study analyzes the views of these two poets on man and society, the concept of the "Perfect Man" (Kamil Insan), and issues concerning conscience, homeland, and love, as well as the socio-spiritual significance of the word. Through the prism of classical and modern poetry, the historical continuity of literary traditions is highlighted, revealing the modern embodiment of the ideological and aesthetic criteria established by Alisher Navoi within the creative output of Abdulla Oripov.

**Keywords:** Alisher Navoi, Abdulla Oripov, literary studies, the perfect man, conscience, national identity, patriotism, poetry.

Zamonlar osha hamma davrlarda ham adabiyot taraqqiyoti uzluksiz jarayon bo'lib, har bir tarixiy davr o'zidan avvalgi ijod jarayonidagi badiiy-estetik tajribaga tayangan holda shakllanib va rivojlanib boradi. Shu ma'noda Alisher Navoiy va Abdulla Oripov ijodi o'zbek adabiyotining ikki davr va ikki muhim bosqichini ifodalovchi ijod namunasi sifatida ko'zga tashlanadi. Bu holat ular o'rtasida chuqur g'oyaviy uyg'unlik mavjud ekanligini va bu mavjudlik she'riyatdagi g'oyaviy izchillikni bardavom ekanini ko'rsatib turadi. Alisher Navoiy – o'zbek adabiyoti va umuman turkiy xalqlar madaniyati tarixida alohida o'rin egallagan ulug' siymo hisoblanadi. U nafaqat mumtoz adabiyotning yirik vakili, balki til, madaniyat, falsafa va ma'naviyat masalalaridagi chuqur qarashlari bilan yangilik yaratgan buyuk mutafakkirdir. Bugungi globallashuv davrida Navoiyning ijodiy merosi mumtoz va zamonaviy adabiyot uchun muhim manba bo'lib qolmoqda. Alisher Navoiy (1441–1501) turkiy adabiyotning asoschisi sifatida milliy badiiy tafakkur poydevorini yaratgan bo'lsa, Abdulla Oripov (1941–2016) XX asr oxiri va XXI asr boshlarida ushbu an'analarni yangi tarixiy sharoitda davom ettirdi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Mazkur maqolada Alisher Navoiy va Abdulla Oripov ijodidagi mushtarak g'oyalar – insonparvarlik, ma'naviy mas'uliyat, vatanparvarlik va so'zga munosabat masalalari qiyosiy-adabiy yondashuv asosida tahlil qilinadi.

### **Komil inson konsepti hamda axloqiy tarbiya**

Alisher Navoiy asarlarida ijtimoiy hayotda insonning axloqiy qiyofasi asosiy baholash mezon sifatida ifoda etiladi. Shoir nazarida insonning haqiqiy qadr-qimmatini uning jamiyatda tutgan ijobiy o'rni, ezgu xususiyatlari boshqalarga nisbatan bo'lgan insoniy munosabatlari bilan belgilanadi. Shuning uchun ham bu mavzu shoir ijodida quyidagicha ko'zga tashlanadi:

Odami ersang, demagil odami,

Oniki, yo'q xalq g'amidin g'ami [5. ziyouz.uz.].

Mazkur bayt Hazrat Alisher Navoiy tafakkurida komil inson tushunchasining markazida ijtimoiy mas'uliyat turishini ko'rsatadi. Har qanday odam agar u haqiqiy to'm ma'nodagi ezgu

fazilatli odam bo‘lmasa, xalq dardini o‘z dardidan ustun qo‘ymasa, faqat o‘zini o‘ylab boshqalarning turmush tarzi, boshqalarning ijtimoiy muammolari bilan qiziqmaydigan bo‘lsa, unday odamni odam deb bo‘lmasligini e‘tirof etadi. Shoir bu fikr orqali insonlar qalbidagi ijtimoiy mas’uliyatni yanada oshiradi. Zotan bunday tushuncha Hazrat Mir Alisher Navoiyning deyarli barcha baytlarida topiladi. Uning har bir asari zamirida inson obrazi va uning ijtimoiy mas’uliyati oshkora jaranglab turadi.

Kamol et kasbkim, olam uyidin-

Senga farz o‘lmag‘ay g‘amnok chiqmoq.

Jahondin notamom o‘tmak biaynih,

Erur hammomdin nopok chiqmoq [4.b.37].

Bu qit‘ada komil inson mavzusidagi maqsadga erishish uchun kurashib yashamoq g‘oyasi shoir ijodining bosh maqsadi bo‘lib, ularda hamisha eng go‘zal va oqil insoniy fazilatlar va inson ijtimoiy hayotining belgilab beruvchi mukammallik darajasidagi xususiyatlar namoyon bo‘lib turadi. Yana qit‘ada insonning kamolot darajasi, uning dunyoga kelib, komillikni o‘zi uchun kasb qilib, bu boradagi barcha ezgu xislat va fazilatlar pog‘onasidan ko‘tarilib maqsadga erishmasa, nom-nishonsiz, o‘z dardi hasratlariga qorishib o‘tib ketadigan bo‘lsa, umid bilan hammomga kirib yuvinmay chiqib ketish bilan barobar ekanligini aytadi. Bu esa dunyoga bekorga kelib ketish demakdir demoqchi bo‘ladi. Bular hammasi birlashib Insonlar qalbida maqsad bilan yashash, unga erishish, komillik xususiyatlariga ega bo‘lish mas’uliyatini kuchaytiradi. Navoiyning “Xamsa”, dostoni va nasriy asarlarida ilgari surilgan insonparvarlik, adolat, muhabbat, ilm va ma‘rifat g‘oyalari bugungi yozuvchi va shoirlar ijodida ham davom etmoqda. Zamonaviy adabiyotda uchraydigan falsafiy mushohada, ma‘naviy izlanishlar va estetik qarashlarning ildizlari ko‘pincha Navoiy ijodiga borib taqaladi. Shuningdek, Navoiyning badiiy uslubi, obrazlar tizimi va ramziy ifodasi bugungi adabiy tafakkur rivojiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatib, adabiy an‘ana va davomiylikni ta‘minlab kelmoqda.

Abdulla Oripov ijodida esa ushbu g‘oya vijdon kategoriyasi orqali ifodalanadi. Shoir insonning ichki axloqiy nazoratini eng oliy mezon sifatida baholaydi:

Vijdon – bu ichingdagi eng oliy sud,

Undan hech qachon qochib qutulmaysan. – deydi.

Bu jihatdan shoir Abdulla Oripov inson ma‘naviy kamolotini tashqi olam omillaridan ko‘ra ichki ruhiy mas’uliyat mezoni bilan bog‘laydi. Har ikki ijodkor qarashlarida inson axloqi uning insoniy sifatleri markaziy o‘rinni egallaydi. Bunday sifatlar Abdulla Oripov ijodida istagancha topiladi.

“Vijdon” sudining ma‘nosi juda chuqur falsafiy va axloqiy mazmunga ega. Bu yerda vijdon insonning ichki hakami sifatida tasvirlanadi. Shoir uni tashqi sudlardan ham, qonun-qoidalardan ham ustun qo‘yadi. Chunki odam oz xatolarini yoki aybini boshqalardan, jamiyatdan yoki qonundan yashirishi, aldashi mumkin, ammo o‘z vijdonidan yashira olmaydi. Inson yolg‘iz qolganida ham, qalbining tubida vijdon uni qilgan ishlariga qarab baholaydi.

“Eng oliy sud” deyilishi bejiz emas – vijdon jazosi moddiy emas, lekin u ruhiy azob, pushaymonlik, uyat, tinimsiz o‘ylar orqali insonni qiynaydi. Ba‘zan bu jazo tashqi jazolardan ham og‘irroq bo‘ladi. Shoir shu misralar orqali insonni halollikka, adolatga, poklikka chorlaydi. U shuni anglatadiki, haqiqiy insoniylik – vijdon oldida pok bo‘lishdir. Chunki vijdon bilan yuzma-yuz kelishdan hech kim qochib qutula olmaydi.

Bu she‘r Abdulla Oripov axloqiy falsafasining cho‘qqisi hisoblanadi. Unda: vijdon – insonning ichki hakami, vijdonsiz ilm ham, boylik ham qadrsiz ekanligi juda ta‘sirli tarzda ifodalanadi. Abdulla Oripov nazarida komil inson: vijdonli, iymonli, halol, aytgan so‘ziga mas‘ul, Vatani va xalqiga sodiq bo‘lishi lozim bo‘ladi.

### **Milliy tafakkur va vatan g‘oyasi talqini**

Alisher Navoiy ijodida milliy ong masalasi til va adabiyot bilan chambarchas bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. U xalq manfaatini eng oliy qadriyat sifatida talqin etadi:

Kimki bir ko‘ngli buzug‘ning xotirin shod aylagay,

Oncha borkim Ka‘ba vayron bo‘lsa obod aylagay [6. tafakkur.net.].

Bu misralarda shoir xalq bilan birga bo‘lish, uning ko‘ngli, o‘y-fikrlari bilan qiziqish, har qanday holatda ham uning manfaatlarini ko‘zlash g‘oyasini insoniylikning yuqori darajasi sifatida

baholaydi. Zero, bunday yuksak darajadagi chaqiriq har bir inson turmush tarzida e'tiborsiz qolmasligi lozimligiga, inson ko'ngli Ollohning uyi bilan barobar ekanligiga ochiqdan-ochiq ishora bor. Yana shunday ma'no borki, bir kishini xursand qilish, uni ko'glini ko'tarib hojatini ravon qilish Ollohni uyi hisoblanmish Ka'bai mukarramani obod qilish bilan barobarlashtiriladi. Bunday fikrlar mazmuni insonni boshqalarga yaxshilik qilishga, insonlar ko'nglini ko'tarib ularni mamnun etishga chorlaydi. Bu esa komillikning eng oliy sifatlaridan biri hisoblanadi.

Abdulla Oripov ijodida insoniylik sifatleri, milliy ong va Vatan g'oyasi tushunchalari, uning vatan mavzusidagi she'rlarida mustaqillik davri ijtimoiy tafakkuri bilan uyg'unlashib ketadi. Shoir o'z vatani tuprog'ini muqaddas qadriyat sifatida tasvirlar ekan, o'z-o'zidan junbushga kelgan tuyg'ulari uni va insonlarni Vatanga yanayam yaqinlashtiradi. Yana qator savollar orqali ifoda etilgan javoblarda milliy g'urur, millat manfaatleri ulug'lanadi.

Men nechun sevaman O'zbekistonni,

Tuprog'i ko'zimga aylab to'tiyo.

Nechun Vatan, deya eru osmonin,

Muqaddas atayman, atayman tanho [7. kh-davron.uz.].

Bu satrlar Hazrat Navoiy davrida shakllangan milliy ong g'oyasining zamonaviy badiiy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu she'rda ifoda etilgan har bir satrda xalq, Vatan, uning moddiy va ma'naviy boyliklari nazarda tutiladi va ulug'lanadi. Zero, Vatan bo'yi-basti uning faqatgina yer-u osmonigina emas, hatto cho'l-u biyobonigacha Vatandir. Shoir ushbu satrlar orqali insonlarni vatanni sevishga, uni bor kengliklari-yu yuksakliklari bilan ulug'lashga, nafaqat ulug'lashga hatto tikka cho'pi uchun ham tik turib qo'rishga, kurashishga chorlaydi.

Men nechun sevaman O'zbekistonni,

Bog'laring jannat, deb ko'z-ko'z etaman.

Nechun ardoqlarkan tuprog'ini men,

O'paman, tuprog'ing bebaho, Vatan! [7. kh-davron.uz.]

Shoir Abdulla Oripov o'z tuyg'ularini qog'ozga tushirar ekan eng avvalo yurt jamolini ko'z-ko'z qiladi. Chunki bu tushunchada milliy ong mahsuli bo'lmish milliy g'urur, milliy faxr va iftixor tuyg'usi bor. Bu tuyg'u o'zini namoyon etar ekan, hech bir holat, yoki mavjudlik uni susaytira olmaydi. Endi bu g'oya baralla va boqiy jaranglaydi. U yurakdan chiqib mehr-u muhabbat tuyg'usi bilan omuxta Vatan tuyg'usi bilan tutashib ketdi.

Men nechun sevaman O'zbekistonni?

Sababini aytgin, desalar menga.

Shoirona, go'zal so'zlardan oldin,

Men ta'zim qilaman ona xalqimga [7. kh-davron.uz.].

Millat ma'naviyati, Vatan tuyg'usi shoirlar ijodining eng yuqori nuqtasidan o'rin olar ekan, Abdulla Oripov Bu tuyg'uni shu qadar mohirona ifoda etadiki, unda na tushunmovchilikka va na biror bir savolga o'rin qolmaydi. Chunki bu xalq, bu Vatan har birimiz uchun qonlarimiz va jonlarimizga tutashib ketgan borliqdir.

Xalqim, tarix hukmi seni agarda,

Mangu muzliklarga eltgan bo'lsaydi,

Qorliklarni makon etgan bo'lsayding,

Mehrim bermasdim o'sha muzlarga? [7. kh-davron.uz.]

Xalq va Vatan timsoli hamisha qalamga olinar ekan, uni beqiyos ekanligi, bir-biri bilan chambarchas bog'liq ekanligi ko'z o'ngimizda yaqqol namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham shoir uni shu qadar baland pafos bilan ifoda etadiki, uni har qanday yerda, har qanday holatda har qanday zamonda ham sevish mumkin bo'ladi. Mangu muzliklar, yoki qorli tog'lar bag'rida bo'lsa ham shoir uchun faqat va faqat muhabbatga, ulug'likka molik bo'laveradi.

Vatanlar, Vatanlar, mayli, gullasin,

Bog' unsin mangu mukim muzda ham, ammo,

Yurtim, seni faqat boyliklaring chun

Sevgan farzand bo'lsa, kechirma aslo! [7. kh-davron.uz.]

Endi bu misralarda yurtga muhabbat tuyg‘usi, uning zalvori, mas‘uliyati, darajasi haqida fikr yuritadi shoir. Dunyodagi hamma Vatan ham barcha insonlarning yurti ekanligi, hammasi ham mehr-muhabbatga loyiq ekanligi, ularga nisbatan hech qanday g‘araz niyati yo‘qligi va o‘z yurtining muhabbati naqadar yuksakligi, uni barcha shunday sevishiga, agar shunday sevmasa bunday farzandni also kechirmaslikka undaydi. Bu hukmni yurtning o‘ziga havola qiladi. Chunki kechirmaslikka, bunday farzandga qarshi haqqoniy hukm chiqarishga eng avvalo uning o‘zi haqli ekaniga ishora qiladi.

### **Muhabbat konsepti, g‘oyaviy uzviylik**

Alisher Navoiy ijodida muhabbat tuyg‘usi, ilohiy ishq tushunchasi bilan uyg‘un holda yoritiladi. Shoir o‘z asarlarida ishq insonni ruhiy poklanishga yetaklovchi kuch deya talqin qiladi. “Layli va Majnun” asarida bir o‘rinda ishq haqida shunday deydi:

Ishq ichra kishi topmasa fano,  
Kim aytur anga yetti bu sano? [8. www.google.com.]

“Layli va Majnun” dostonidagi ushbu misralar shoir tomonidan ilohiy ishq shu qadar buyuk bir ishqki, unda inson foniylik olami, ya‘ni o‘zidan kechish darajasiga boradi. Biroq, qayg‘urmaydi. Bunday insonga dunyoning shon-shuhrati-yu boyliklarini ahamiyati qolmaydi demoqchi bo‘ladi.

Bu satrlarda ishq shunday ilohiylashtiriladiki, natijada inson nafsdan voz kechishi va ishq komillikka erishish vositasi sifatida ifodalanadi.

Ruboiylarida esa ilohiy ishq quyidagicha talqin qilinadi:  
Jondin seni ko‘p sevaymen, ey umri aziz,  
Sondin seni ko‘p sevaymen, ey umri aziz.  
Har nenikim sevmak ondin ortiq bo‘lmas,  
Ondin seni ko‘p sevaymen, ey umri aziz [4.B.38].

Bu ruboiy tashqi shaklda yor bilan ishqiy munajatga o‘xshaydi, ammo tasavvufda bunday misralardagi “sen” ko‘pincha Alloh yoki Mutlaq Haqiqatni bildiradi. Demak, ruboiy – bandaning Haqqa nisbatan muhabbatini ifodalaydi. Shoir bu yerda insoniy muhabbat tilidan foydalanib, ilohiy ishqni tavsif etadi. Ilohiy ishq ruboiyning birinchi qatorida shunday tasvirlanadi:

“Jondin seni ko‘p sevaymen, ey umri aziz”.

Jon – bandaning eng oliy ne‘mati. Uni qurbon qilishga tayyorlik – fano maqomiga ishoradir. Bu satrni ilohiy ma‘noda shunday tushunish mumkin:

“Ey Haq, men Seni jonimdan ham ortiq sevaman”

Bu ishqning boshlang‘ich bosqichi emas, yetuk, ulug‘vor, yuqori bosqichidir.

“Sondin seni ko‘p sevaymen, ey umri aziz.”

Son – aql, hisob, mantiq, sanoq, o‘lchov. Aql ishqni chegaralaydi, ishq esa chegara bilmaydi. Bu ishq hududi hayol hududi kabi so‘ngsiz. Bu hodisa Navoiy hazratlari ijodida ilohiy ishqni aqldan ham ustun qo‘yilishini anglatadi.

“Men Seni aql va hisobdan ham ortiq sevaman.” – deydi. Bu bilan hech kim hech qanaqasiga e‘tiroz bildira olmasligiga ishora qiladi. Zotan, ishq ahli na e‘tiroz, na qarshilikni biladi. Ular bu yo‘lda Haq ishqiga yetish yolida barchasi dunyo, nafs, jannat, savob – barchasi cheklangan muhabbatlar ekanini biladi. Haq ishq – mutlaq va oliy. Shuning uchun ham:

“Har nenikim sevmak ondin ortiq bo‘lmas,

Ondin seni ko‘p sevaymen, ey umri aziz.” – deydi. “Yaratilgan hech bir narsa Senga bo‘lgan muhabbatdan ustun emas. Ey Haq, Seni barcha mavjudotdan ko‘ra ortiq sevaman.” – deydi. Ruboiydagi bu ishq ifodasi – Ilohiy ishq ifodasi bo‘lib, u cheksiz muhabbat iqrorigidir. Abdulla Oripov muhabbatni hayotiy va ruhiy kechinmalar orqali ifodalaydi, biroq uni ham mas‘uliyat bilan bog‘laydi:

Sevgi – bu shunchaki tuyg‘u emas,  
U – mas‘uliyat, u – dard, u – iymon.

Mazkur misralar muhabbatning tarbiyaviy va axloqiy ahamiyatini ochib beradi.

Quyida Abdulla Oripovning ““Munajat”ni tinglab” she‘ridan parcha va uning tahlilini keltiramiz. Bu she‘r asosan ruhiy og‘riq, insonning ichki iztiroblari hamda ilohiy ishq va tavba hissi bilan uyg‘un yaratilgan, deb baholashimiz mumkin.

Qani ayt, maqsading nimadir sening,  
Nega tilkalaysan bag‘rimni, ohang,  
Nechun kerak bo‘ldi senga ko‘z yoshim,  
Nechun kerak, rubob, senga shuncha g‘am!

...

Bas, yetar, cholg‘uchi, bas qil sozingni,  
Bas, yetar, ko‘ksimga urmagil xanjar,  
Nahotki dunyoda shuncha g‘am bordir...  
Agar shu “Munojot” rost bo‘lsa agar [10.A.Oripov.uz.].

“Qani ayt, maqsading nimadir sening...” – deyilgan satrda shoir shaxsiy dardini “munojot” nomli kuyga yo‘naltirgan. U rubob – musiqiy cholg‘u kuyi orqali jon qayg‘u, og‘riqni his etadi. Bu satrda ichki ruhiy iztirob – ilohiy ishq vositasida namoyon bo‘ladi. Rubob va ohang – bu yerda musiqiy timsollar, lekin aslida bu hissiyotlar qalbgga chuqur ta‘sir etuvchi ilohiy ishqning ifodasidir.

“Nechun kerak bo‘ldi senga ko‘z yoshim...” misralarida shoir savol beruvchi pozitsiyada: nega uning dardi shu qadar teran? Ko‘z yoshlari orqali insonning ichki poklanish jarayoni – tavba va Alloh oldidagi ochiqlikni his etadi. Ko‘z yoshlari – ruhiy tozalanish, dardning insonni Allohga yaqinlashtiruvchi vositasi sifatida ifodalangan.

“Bas, yetar, cholg‘uchi...” – deyilganda, shoir bu da‘vat orqali sozni va og‘riqli hissiyotlarni to‘xtatishni so‘raydi. Bu yerda she‘riy “munojot” – ichki dialog, ruhiy kurashga aylanadi. Bu satrda inson Alloh bilan to‘qnashadi. O‘z hissiyotini o‘zi bilan muzokara qilari ekan, Soz va cholg‘uchiga nisbatan shuncha dard va iztiroblar yo‘llayotgani uchun unga murojaat qiladi. Murojaatki, alam, iztirob, o‘kinch, iddao, Shubha, ajablanish, e‘tiroz qorishiq istak va davatlar bilan so‘roqqa tutadi:

Eshilib, to‘lg‘anib inganadi kuy,  
Qaylardan kelmoqda bu ohu faryod.  
Kim u yig‘layotgan, Navoiymikin,  
Va yo may kuychisi Hayyommikin, dod! [10.A.Oripov. uz.]

Keyin o‘z dardlarini kuy dardiga hamohang tarzda ingroqlar, to‘lg‘oqlar bilan tarix dardiga tutashtiradi. Zero, zamonlar osha Navoiy ham, Hayyom ham shu iztiroblarni guvohi bo‘lganligi, kuy mavjiga cho‘milib ko‘z yosh daryosida oqqanligi hayotiy haqiqat ekanligi ko‘ngildan o‘tadi va bu holat yana bir karra shoirga azob beradi. Munojot kuyi orqali uzoq o‘tmish, undagi mashaqqatlar, jismoniy va ruhiy iztiroblar yuragiga xanjar kabi botayotganidan og‘rinadi. Bu og‘riq o‘ksinishdan ko‘ra ko‘proq e‘tiroz. Izitirob va otashga o‘xshaydi. Og‘riqli tuyg‘ular kurashidan charchagan qalb tinchlik va sokinlik hamda yorug‘lik istaydi:

Agar shu “Munojot” rost bo‘lsa agar.  
Agar aldama shu sovuq simlar,  
Sen beshik emassan, dorsan, tabiat,  
Sen ona emassan, jallodsan, dunyo! [10. A.Oripov.uz.]

Shu o‘rinda shoir kuyning o‘zidan yangrayotgan ohang ilohiy ekaniga ishora qiladi. Satrlar orqali esa shoir o‘z iztiroblarini bir chetga surib qo‘yib, tabiatga, dunyoga nisbatan ishonchi, uning qilmishlariga nisbatan haqqoniy e‘tirozlarini ifoda etadi. Shu o‘rinda inson tabiatga qo‘ygan mehri, dunyoga qo‘ygan ishtiyoqi bekor ekanligiga, bular hammasi Boqiy dunyo oldida hech ekaniga ishora bor.

So‘nggi misralarda shoir jahondagi og‘riqlar, tarixiy qayg‘ularni ham bir butun dard bilib – bu ilohiy ishq va umumbashariy olamga bo‘lgan iztirob bilan chambarchas bog‘liq ekanini dalillaydi.

“Asrlar g‘amini so‘ylar “Munojot”...”[10. A.Oripov.uz.] – deydi. Shoir bu bilan zamon g‘amini ham qalb og‘rig‘i sifatida qabul qiladi va bu tasvirlar orqali insonning to‘liq ma‘nodagi ruhiy iztiroblarini tasvirlaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Abdulla Oripovning “Munojot”ni tinglab she‘ri – bu oddiy musiqiy tasvir emas, balki inson ruhining ichki kurashi, uning dunyoviy og‘riqlar ichida mavjudotning mohiyati, inson – Alloh munosabati haqidagi chuqur meditatsiyadir. Shoir rubob va

kuyni timsollari orqali ruhiy g'am-qayg'uni tasvirlab, balki bizni o'z ichki dunyomizga qaytadan nazar solishga chorlaydi.

Ushbu jihatlar bilan har ikki shoir ijodida so'z jamiyatni uyg'otuvchi kuch sifatida talqin etiladi. Vatan tuyg'usi, xalqqa hurmat tushunchasi va ishq muhabbat tuyg'ulari inson uchun hamisha yo'ldosh bo'lib, unga yaxshilik, to'g'rilik va halollikdan saboq berib turguvchi hamroh bo'lib hisoblanaadi.

Navoiyning asarlari bugungi o'zbek madaniyati va ma'naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi. U o'z ijodida inson kamoloti, axloqiy poklik, vatanparvarlik va jamiyat oldidagi mas'uliyat kabi masalalarni ilgari surgan. Ushbu g'oyalar bugungi jamiyat madaniyatida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda Navoiy merosi ta'lim tizimida, madaniy tadbirlarda, teatr, musiqa va tasviriy san'atda keng targ'ib qilinmoqda. Bu holat uning ijodi faqat tarixiy meros emas, balki faol madaniy omil sifatida yashab kelayotganini tasdiqlaydi. Shuningdek, Navoiyning ma'naviy qarashlari yosh avlod tarbiyasida muhim manba bo'lib, milliy o'zlik va madaniy identitetni shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi.

Navoiyning Sharq va G'arb adabiy an'analari o'rtasidagi ko'priq vazifasini bajargani bugungi global madaniyat sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. Uning ijodi jahon madaniy merosining muhim qismi sifatida qaralib, zamonaviy madaniyatlararo muloqotda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Maqolamiz natijalari shuni ko'rsatadiki, Alisher Navoiy va Abdulla Oripov ijodi o'rtasida mustahkam g'oyaviy uzviylik mavjud. Har ikki shoir inson axloqi, vijdon, vatanparvarlik, muhabbat va so'z mas'uliyatini adabiyotning asosiy vazifasi sifatida talqin qiladi. Tarixiy davrlar va badiiy shakllar turlicha bo'lsa-da, adabiyotning ma'naviy mohiyati o'zgarmagan. Abdulla Oripov ijodi Alisher Navoiy asos solgan adabiy-ma'naviy an'ananing zamonaviy davrdagi mantiqiy va ijodiy davomidir.

#### Iqtiboslar/Сноски/References

1. Navoiy, Alisher. Xamsa. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.
2. Navoiy, Alisher. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: O'zbekiston, 1991.
3. To'xliyev B., Mirsamiqova R., Ametova O. Adabiyot (Majmua). II kitob. – Toshkent: nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 432 b.
4. Oripov A. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2011.
5. <https://ziyouz.uz/hikmatlar/qisqa-hikmatlar/odami-ersang-demagil-odami-onikim-ju/>.
6. <https://tafakkur.net/kimki-bir-kongli-buzugning/alisher-navoiy.uz>.
7. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/abdulla-oripov-men-nechun-sevaman-ozbekistonni.html>.
8. <https://www.google.com/search?q=Alisher+Navoiy.+Layli+va+majnundan>.
9. Najmiddin Komilov. Tasavvuf va mumtoz she'riyat. – Toshkent: Yozuvchi, 1996.
9. <https://tafakkur.net/munojotni-tinglab/abdulla-oripov.uz>.
10. Rahmonov, N. Abdulla Oripov ijodida vijdon va vatan mavzusi. – Toshkent: Fan, 2010.

# ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ  
INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY

## “ALISHER NAVOIY” XALQARO JURNALINING AXBOROT XATI

“Alisher Navoiy” xalqaro jurnali O‘zbekiston Respublikasi OAK ro‘yxatiga kiritilgan. Shuningdek, Crossref.org tizimiga ham kiritiladi hamda har bir maqolaga DOI raqami beriladi.

### MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR:

- Maqola 10-15 sahifa hajmida taqdim etiladi;
- maqolalar o‘zbek, turk, tojik, rus, ingliz, fransuz tillarida qabul qilinadi;
- maqolaning tarkibiy tuzilishi IMRAD formatida rasmiylashtirilishi kerak;
- maqola Times News Roman shriftida, 12 kattalikda, 1 intervalda tayyorlanadi;
- havola(snokalar)lar katta qavsda muallif familiyasi – nashr sanasi – sahifasi [Mo‘minov 2020: 25] shaklida keltiriladi;
- maqola tomonlari chap: 2 sm, o‘ng: 2 sm, yuqori va quyi: 2 sm;
- maqolalar plagiatga qarshi tekshiriladi;
- jurnalning 1 ta sonida muallifning faqat 1 ta maqolasi chop etiladi.

**MUROJAAT UCHUN MANZIL:**  
Tel.: +99891 527 68 22  
Telegram ID: +998915276822  
E-mail: alishernavoiy2020@mail.ru

## ИНФОРМАЦИОННОЕ ПИСЬМО МЕЖДУНАРОДНОГО ЖУРНАЛА “АЛИШЕР НАВОИЙ”

Международный журнал “Алишер Навоий” включен в список ВАК Республики Узбекистан. Он также будет включен в систему Crossref.org, и каждой статье будет присвоен номер DOI.

### ТРЕБОВАНИЯ К ОФОРМЛЕНИЮ СТАТЕЙ:

- Объем статьи: около 10-15 страниц;
- статьи принимаются на узбекском, турецком, таджикском, русском, английском и французском языках;
- структура статьи должна быть оформлена в формате IMRAD;
- шрифт текста – Times New Roman; размер – 12 пунктов; межстрочный интервал – 1;
- сноски приводятся в квадратных скобках с указанием фамилии автора – года издания – страницы [Мўминов 2020: 25];
- параметры страницы: слева 2 см, справа 2 см, сверху и снизу по 2 см;
- статьи проверяются на плагиат;
- в одном номере журнала публикуется только 1 статья автора.

**НАШИ КОНТАКТЫ:**  
Тел.: +99891 527 68 22  
Telegram ID: +998915276822  
E-mail: alishernavoiy2020@mail.ru

## “ALISHER NAVOIY” INTERNATIONAL JOURNAL INFORMATION LETTER

“Alisher Navoiy” International Journal is included in the list of HAC of the Republic of Uzbekistan. It will also be included in the Crossref.org system, and each article will be assigned a DOI number.

### REQUIREMENTS FOR ARTICLES:

- The article should be presented in 10-15 pages;
- articles are accepted in Uzbek, Turkish, Tajik, Russian, English, French;
- the structure of the article should be in the IMRAD format.
- the article should be prepared in Times New Roman font, 12 sizes, 1 space;
- references are given in parentheses in the form of the author’s name – date of publication - page [Muminov 2020: 25];
- sides of the article left: 2 cm, right: 2 cm, top and bottom: 2 cm;
- articles will be checked against plagiarism.
- only 1 article by the author is published in 1 issue of the journal.

**CONTACT ADDRESS:**  
Phone: +99891 527 68 22  
Telegram ID: +998915276822  
E-mail: alishernavoiy2020@mail.ru